

ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

Qodirova Xolida Salimovna

Toshkent davlat agrar universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada ziyorat turizmini rivojlantirish mexanizmining tashkiliy-huquqiy asoslari keltirilgan. Joylardagi ziyoratgohlarning salohiyatidan to'laonli foydalanish, ularning imkoniyatlarini baholash, raqamli dastur va platformalar orqali reklama qilish hamda onlayn sayohat qilish ko'lamini kengaytirish masalalari bayon etilgan. Ziyorat turizmini rivojlantirishga doir xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, madaniy meros obyektlari, hududlar infratuzilmasi, ziyorat, ziyoratchi, ziyorat turizmi, tarixiy obidalar turizmi, ekologik turizm.

Аннотация

В данной статье представлены организационно-правовые основы механизма развития паломнического туризма. Изложены вопросы полноценного использования потенциала мест паломничества, оценки их потенциала, продвижения через цифровые программы и платформы, а также расширения охвата онлайн-путешествий. Даны выводы о развитии паломнического туризма.

Ключевые слова: туризм, объекты культурного наследия, инфраструктура территорий, паломнический, паломнический туризм, туризм исторических памятников, экологический туризм.

Abstract

This article presents the organizational and legal foundations of the mechanism for the development of pilgrimage tourism. Issues of full-fledged use of the potential of shrines in places, assessment of their capabilities, promotion through digital programs and platforms, and expansion of the scope of online travel are described. Conclusions are given on the development of pilgrimage tourism.

Keywords: tourism, objects of cultural heritage, infrastructure of regions, pilgrimage, pilgrim, pilgrimage tourism, heritage tourism, ecological tourism.

KIRISH

O'zbekistonda turizm sohasini taraqqiy ettirishda mavjud salohiyatdan to'liq va samarali foydalanish, turizm infratuzilmasidagi muammolarni bartaraf etish, shuningdek, mavjud resurslar va imkoniyatlardan to'laonli foydalanish hisobiga turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratildi. Shu bois, «O'zbekiston–2030» strategiyasida O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish, xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, «Ko'hna tarix durdonalari» milliy dasturini ishlab chiqish hamda uning doirasida madaniy meros

obyektlarini restavratsiya qilish, yodgorliklarda «ochiq osmon muzey»larini tashkil etish vazifalari belgilangan [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm sohasini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarining ilmiy-nazariy jihatlarini ko'plab xorijiy olimlardan M.C.Pardo [2], T.Korov, M.Sostar, B.Andruse [3], Kaustav Chatterjee [4], T.Handriana, P.Yuliantiand, M.Kurniawati [5], L.S.Budovich [6], V.L.Smith [7], I.Reader, T.Walter, D.J.Timothy, D.H.Olsen [8] va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida Ye.V.Pecheritsa [9], Ye.Ye.Sharafanova, V.S.Senin [10], S.Yu.Jitenev [11], A.V.Babkin [12], T.T.Xristov [13], M.Gunare [14], S.G.Zemlyanuxina [15], P.Keller [16] kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari turizm sohasini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ilmiy tadqiqotiga bag'ishlangan.

Respublikamizda A.A.Eshtayev [17], I.S.Tuxliyev [18], A.M.Abduvohidov [18], M.T.Alimova, N.N.Safarova [19], O.H.Hamidov [20], M.T.Aliyeva [21], A.N.Norchayev, H.R.Hamroyev, M.X.Kurbanova [23], A.B.Usmanova [24], Z.S.Abriyev, Sh.A.Xolbayev [25], Sh.R.Ro'ziyev [26], A.K.Alimov [27] va boshqa olimlar tomonidan respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish, mahalliy va xorijiy turistlarni jalb etish, ziyorat turizmini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o'rganilgan.

Ammo ziyorat turizmini hududlar bo'yicha rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan unumli foydalanish va samaradorligini oshirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlariga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Bu esa o'z navbatida, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etib, tadqiqot ishi mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, tahlil va sintez, statistik guruhlash, monografik tahlil, qiyosiy tahlil, ekspert baholash, SWOT-tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, iqtisodiy-matematik modelashtirish va prognozlash usullari qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonni taraqqiy ettirishda avvalo jahon andozalari doirasida xizmat ko'rsatish sifatini ta'minlashda xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy asoslarga moslashtirish talab etiladi. Shu bois, keyingi yillarda turizm sohasida juda ko'p o'zgarishlar amalga oshirilib, soha rivojiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi, xalqaro va mahalliy tadbirlar o'tkazilishi, turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlaydigan yangi ta'lim muassasalarining faoliyat yo'lga

qo'yilishi, sayyohlar oqimining bir necha barobar oshishi kabi yangiliklar kuzatilmoqda.

Mahalliy turizmni rivojlantirish, yangi yo'nalishlarni joriy etish, o'ziga xos turizm mahsulotlarini yaratish, infratuzilmani takomillashtirish, xorijiy investorlarni jalb qilish, xalqaro aviareyslar sonini ko'paytirish, temir yo'l va avtobus qatnovlarini modernizatsiyalash kabi chora-tadbirlar muhim rol o'ynagan. O'zbekistonning tarixi va madaniyatini dunyo miqyosida namoyish qilishga qaratilgan tadbirlar, jumladan, 2023-yilning 16–20-oktyabr kunlari Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining yubiley 25-sessiyasi o'tkazilishi bu boradagi muhim qadam bo'ldi.

Ushbu nufuzli anjumanda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan bir qator dolzarb tashabbuslar ilgari surildi. Jumladan, dunyoda yuz berayotgan etnik, milliy va diniy nizolar turizm sohasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlanib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida Global xavfsiz turizm kodeksini tatbiq etish taklif qilindi. Shuningdek, Butunjahon turizm tashkiloti huzurida Sayyohlik bo'yicha tarixiy shaharlar kengashini tuzish va "Yashil turizmni joriy etish bo'yicha eng yaxshi shahar" nominatsiyasini ta'sis etish takliflari bildirildi.

Turizm sohasining iqtisodiy samarasi alohida qayd etilib, sohaga kiritilgan har bir dollar kelgusida 3–4 barobar daromad keltirishi va yaratilgan har bir yangi ish o'zni boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish o'zni yaratishga imkon berishi ta'kidlandi.

Anjumanda 90 dan ortiq davlatlarning turizm bo'yicha vazir va vazir o'rinbosarlari ishtirok etdi. Bu esa, mamlakatning turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni, sayyohlar uchun yaratilgan infratuzilma sharoitlarini va necha ming yillik tarixga ega bo'lgan ziyoratgohlarni namoyish etishda katta imkoniyat bo'ldi. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar turizm boshqarmalari tomonidan hududlarning turizm salohiyatini ko'rsatishga qaratilgan qisqa metrajli filmlar, bloglar, tur-paketlar va tarqatma materiallar xorijiy delegatsiyalarga namoyish etildi. Bu esa xorijlik turistlarni jalb qilish borasida ko'plab kelishuvlarga erishishga xizmat qildi.

Bizning fikrimizcha, Qoraqalpog'iston Respublikasida ziyorat turizmini rivojlantirishda Samarqandda o'tkazilgan Butunjahon turizm tashkilotining 25-sessiyasining o'zni ahamiyatli bo'ldi. Chunki Buyuk Ipak yo'lida sayyohlikni rivojlantirish, Qoraqalpog'iston Respublikasining qadimiy, uzoq tarixga ega bo'lgan Guldursun qal'a, Tuproqqal'a, Mizdaxkon majmuasi (Xo'jayli G'ovur qal'asi) kabi ziyoratgohlarning turizm salohiyatini namoyish etish va hududga mahalliy hamda xorijiy sayyohlar oqimini ko'paytirishda muhim rol o'ynadi.

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va ta'lim jarayonida ziyorat turizmining o'zni beqiyosdir. Boy tariximiz va necha ming yillik madaniy meros obyektlariga yoshlarni jalb qilish imkoniyati mavjud. Bu borada davlat tomonidan joylarda turizm haftaliklari, turizmning turli yo'nalishlari bo'yicha sayyor va ko'rgazmali seminarlar tashkil etilmoqda. Ammo maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, o'rta maktab o'quvchilari, oliy va professional muassasalarda tahsil oluvchi yoshlarning Qoraqalpog'iston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar va bunyodkorlik ishlari bilan tanishishi hamda madaniy meros obyektlari

hisoblangan ziyoratgohlar va muzeylarga tashrifi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan davrda virtual turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish taqozo etiladi. Dunyo aholisining turizmga tobora ortib borayotgan qiziqishi, tarixiy shaharlarga tashrif buyurishi yoki onlayn sayohat qilish imkoniyatlarining yaratilishi bu jarayonni tezlashtirmoqda. Respublikamizda ham bu yoʻnalishda axborot texnologiyalari, sunʼiy intellekt, elektron tijorat va raqamlashtirish masalalariga oid qator meʼyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Shundan kelib chiqib, yoshlarni milliy oʻzlikni anglash asosida tarbiyalashda virtual turizm imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Jumladan, onlayn sayohatlarni tashkil etish, ziyoratgohlar haqida qisqa metrajli filmlar suratga olish va talaba-oʻquvchilarga maʼnaviyat soatlarida ushbu materiallarni yetkazish zarur.

I.A. Latipovning fikricha, virtual turizm — bu virtual sayohatlarni tashkil qiluvchi yoki amalga oshiruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning faoliyat turi [29]. Viktoriya Shamlikashvili esa virtual turizmni zamonaviy kompyuter texnologiyalari va aloqa tarmoqlaridan foydalangan holda obyekt haqida real maʼlumotlarni yaratish va ulardan foydalanishni taʼminlovchi faoliyat deb izohlaydi [30]. Virtual turizm nafaqat mamlakatning diqqatga sazovor joylarini, balki kafe, klub va boshqa koʻngilochar obyektlarni 3D-panorama shaklida namoyish etishni ham qamrab oladi.

Virtual turizm orqali ziyoratgohlar va hududlarning ekologiyasi hamda tabiiy boyliklarini namoyish etish orqali qiziquvchilar va investorlarni jalb qilish, reklama va marketingni rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash mumkin. Bu chora-tadbirlarni amalga oshirishda turizmga oid qabul qilingan meʼyoriy-huquqiy asoslarga qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritish, xalqaro tajribani oʻrganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Ziyorat turizmini rivojlantirishda tashkiliy-huquqiy jihatlar alohida eʼtibor talab qiladi. Bu borada madaniy meros obyektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ziyoratchilar oqimini koʻpaytirish va infratuzilma sharoitlarini yaxshilash boʻyicha aniq maqsad va vazifalarni belgilash, ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqish zarur. Ziyorat turizmini barqaror rivojlantirishda quyidagi asosiy koʻrsatkichlar strategik omil sifatida xizmat qiladi

1) Ziyorat turizmini tashkil etishning maqsad va vazifalarini belgilash:

madaniy meros obyektlarining salohiyatidan unumli foydalanishda hududlar kesimida marshrutlarini ishlab chiqish;

madaniy meros obyektlarining tarixan shakllangan qadriyatlari va xizmat koʻrsatishining aniq maqsadlarini belgilash;

hududlarda madaniy meros obyektlarini istiqbolli rivojlantirish dastur va loyihalarini ishlab chiqish;

ziyosat turizmi yoʻnalishida amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, belgilangan asosiy vazifalarga erishishni bashorat qilish.

2) Ziyorat turizmi subyektlarini samarali boshqarish:

Zamonaviy boshqaruvda ziyoratgohlarni rivojlantirishning aniq maqsadga erishish ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilish, sayyohlarni jalb etish ko'lamini kengaytirish;

erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash;

raqamli texnologiyalar asosida oldingi va keyingi faoliyatning boshqaruv samaradorligini baholash orqali mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish;

ziyoratgohlarni rahbarlari tomonidan qabul qilingan qarorlarning ijrosini tahlil qilish va nazoratini olib borish;

ziyoratgohlar va hududdagi xizmat ko'rsatuvchilar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish.

3) Ziyoratgohlarning joylashgan joyi, tabiiy-iqlim sharoiti, ekologiyasini baholash:

ziyoratgoh joylashgan hudud iqlimi, ekologiyasi, hududning mavjud turistik salohiyatidan kelib chiqib, qo'shimcha xizmat ko'rsatish turlarini qayta ko'rib chiqish;

ziyoratgohlarda yashil zonalarini barpo qilish, sog'lomlashtirish va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatishning chora-tadbirlarini belgilash;

ziyoratgohlarda yashil hududlarni tashkil etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etish;

madaniy meros obyektlarida ziyoratchilar uchun qulaylik yaratishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

Yuqorida keltirib o'tilgan asosiy ko'rsatkichlarni amaliyotga joriy etish, madaniy meros obyektlarini reklama qilish va tashrif buyuruvchilar sonini ko'paytirish uchun davlat tomonidan yaratilgan imkoniyatlar, qabul qilingan qonun va qonun osti hujjatlari ijrosini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Qoraqalpog'iston Respublikasida ziyorat turizmining salohiyatidan samarali foydalanish va aholi farovonligini oshirish uchun, avvalo, uning huquqiy-me'yoriy asoslariga e'tibor qaratish va ularni takomillashtirish zarur. Ziyorat turizmida, xususan, madaniy meros obyektlarini qo'llab-quvvatlash, xorijiy tajribalarni joriy etish, va qabul qilingan qonun, qaror va farmonlar asosida mahalliy va xorijiy sayyohlarni ziyoratgohlarga jalb etish muhimdir.

Shuningdek, ziyoratgohlarning jozibadorligini oshirish uchun zamonaviy marketing usullaridan foydalanish, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida turizm bo'yicha ilmiy-amaliy seminarlar tashkil etish lozim. Ziyoratgohlarni rekonstruksiya qilish, xizmat ko'rsatish va dam olish uchun yetarli sharoitlarni yaratish hamda turistlarda ziyoratgohlar haqida to'liq va ijobiy taassurot qoldirish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jamiyatni taraqqiy etib borishi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda hududlardagi diqqatga sazovor joylar, ziyoratgohlar va tabiatini hisobga olib, ushbu hududga sayyohlarni jalb qilish orqali rivojlantirish samarali bo'ladi. Shu bois, ziyorat

turizmi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni takomillashtirish va uning quyidagi samarali yo'nalishlarini belgilash maqsadga muvofiq:

hududlarda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy-madaniy barqarorlikni ta'minlash, turistlarning yashash sharoitini yaxshilash va ularning xavfsizligini ta'minlash;

ziyosat turizmi va madaniy meros obyektlaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun mahalliy byudjetdan mablag'lar ajratish;

hududdagi ziyoratgohlarga mos bo'lgan turar joylari, transport qatnovi uchun yo'llar holatini yaxshilash, infratuzilma, mehmondo'stlik, tibbiy xizmatlar ko'rsatish darajasi, turistlarga jozibador xizmatlar ko'rsatish uchun xodimlar malakasini oshirish;

sayyohlarni jalb etish va ularga xizmat ko'rsatuvchi, ziyorat turizmni targ'ib qilish, ekskursiyalarni tashkil etuvchi gidlarni tayyorlash, shuningdek, turistlarni diniy bayramlar, urf-odatlar, madaniy tadbirlarda ishtirok etishini ta'minlash;

turistik hududlarda yashil maydon, bog'lar, manzarali daraxtlar va qulay landshaft dizaynni yaratish;

turistlar uchun qulay bo'lgan sug'urta, bank, vizalarni rasmiylashtirish, valyuta-ayirboshlash, reklama va mehmonxona xizmatlarini tashkil etish;

turistik obyektida hunarmandchilik buyumlarini tayyorlash, sotish, yetkazib berish, 24 soatlik do'konlarini tashkil etish va mahalliy aholining turizm obyektlaridan foydalanish darajasini iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "«O'zbekiston–2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son).

2. M.C.Pardo va boshqalar. *Developing Pilgrimage Tourism in Latin America: Lessons Learned from the Camino de Santiago* // International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage. Volume 11. Issue 4. 13th Annual IRTP Conference, Vilnius, 2022. 12 b.;

3. T.Korov, M.Sostar, B.Andrlice. *The model of strategic management of a religious tourism destination in function of sustainable development* // International Journal of Professional Business Review. Miami, v. 9n. 2024. 49 b.;

4. Dr. Kaustav Chatterjee. *Modern Tourism Development through Sustainable Tourism Approach: A Case Study of Pilgrimage Tourism in Varanasi* // International Journal of Creative Research Thoughts (IJCRT). 2022. Volume 10, Issue 5 May 2022 | ISSN: 2320-2882. 12 b.;

5. T.Handriana, P.Yuliantiand va M.Kurniawati. *Exploration of Pilgrimage Tourism in Indonesia* // Journal of Islamic Marketing. Emerald Publishing Limited. DOI10.1108/JIMA-10-2018-0188. 3 April 2019. 13 b.;

6. L.S.Budovich. *The Impact of Religious Tourism on the Economy and Tourism Industry* // Journal HTS Teologiese Studies. 30 May 2023. 7 b.;

7. V.L.Smith. *Pilgrimage and Tourism: The Quest in Guest*; I.Reader, T.Walter. *Pilgrimage in Popular Culture*. Springer, 2016.;

8. Timothy D.J., Olsen D.H. (Eds.). (2006). *Tourism, Religion and Spiritual Journeys (Vol. 4)*. London: Routledge.
9. Е.В.Печерица, Е.Е.Шарафанова. *Паломнический туризм: сущностные аспекты* // ФБГОУ ВО «Санкт-Петербургский государственный экономический университет», Санкт-Петербург.
10. В.С.Сенин. *Организация международного туризма* [Текст]: учебник. М.: Финансы и статистика, 2009. 400 с.;
11. С.Ю.Житенев. *Религиозное паломничество: межкультурные коммуникации и цивилизационный контекст* // Автореферат диссертации. Москва, 2010. 27 с.;
12. А.В.Бабкин. *Специальные виды туризма*. Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. 252 с.;
13. Т.Т.Христов. *Религиозный туризм*. Учебное пособие. Издательство: Academia, 2009. 288 с.;
14. М.Гунаре, О.Е.Афанасьев. *Индивидуальный туризм в ожидании перемен* // Сервис в России и за рубежом, 2020. Т. 14. № (89). С. 197–204.;
15. С.Г.Землянухина. *Трансформация ценностных ориентаций населения в сфере туризма в условиях пандемии* // Вестник Ассоциации вузов туризма и сервиса, 2020. Т. 14. № 1. С. 13–18.;
16. П.Келлер. *Влияние мировых кризисов на туризм* // Вестник РМАТ. 2013. № 3. С. 17–20.;
17. A.A.Eshtayev. *Globalashuv sharoitida turizm industratsiyasini boshqarishning marketing strategiyasi*. Doktorlik dissertatsiyasi. Samarqand, 2019. 246 b.;
18. A.M.Abduvohidov, D.S.Umirova, Z.S.Abriyev. *Turizm rivojlanishini prognozlash*. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2019. 43 b.;
19. N.N.Safarova. *Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga turizm sohasi ta'sirini baholash usullarini takomillashtirish*. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2018.;
20. O.H.Hamidov. *O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish*. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2017. 7 b.;
21. M.T.Aliyeva. *Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari*. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2019.;
22. I.S.Tuxliyev va boshqalar. *Turizm: nazariya va amaliyot*. Elektron darslik. T., 2017.;
23. M.X.Kurbanova. *Ziyorat turizmiga ijtimoiy hodisa sifatida tarixiy-ilmiy yondashuv*. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. 1/2023, yanvar-fevral.;
24. A.B.Usmanova. *Buxoro viloyatining turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish*. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2024.;

25. Sh.A.Xolbayev. *Turizm sohasida iqtisodiy salohiyatdan foydalanish samaradorligini oshirish*. Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand, 2023.;
26. Sh.R.Ro‘ziyev. *O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish*. Doktorlik dissertatsiyasi. Samarqand, 2019.;
27. A.K.Alimov. *Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari*. Doktorlik dissertatsiyasi. Samarqand, 2018.;
28. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 16-oktabr kuni Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi ochilish marosimidagi nutqi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 17.10.2023-y., № 215 (1004).
29. I.A.Latipov. *О некоторых философских аспектах формирования субкультуры виртуального туризма*. Современные проблемы науки и образования. 2014. № 2. С. 102.;
30. В.А.Шамликашвили. *Виртуальный туризм как новый вид туризма*. Креативная экономика, 2014. 10(94). С. 132.